

Korrupsiya dalillariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha
Raqamli texnologiyalar vazirligining yillik
H I S O B O T I

Raqamli texnologiyalar vazirligiga 2025-yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali **1 ta**, **“Ishonch telefoni”** orqali **1 ta va** va to‘g‘ridan-to‘g‘ri, (edo.ijro.gov.uz) elektron manzili orqali **4 ta**, jami **6 ta** murojaat kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar tegishli tartibda o‘rganib chiqilgan va ularning vajlari to‘laqonli qanoatlantirilgan hamda bu haqda murojaatchilarga javob xatlari yuborilgan.

Jumladan:

1. “Leaders group team” MChJ tomonidan uning qonuniy manfaatlari himoya qilishda amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha murojaat kelib tushgan. Mazkur jamiyat huquqlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga 12-8/2308-son murojaat xat yuborilgan. O‘z navbatida, Prokuratura mas‘ul xodimlari tomonidan ushbu murojaat xati o‘rganilib, ko‘rsatilgan amaliy yordamlar natijasida “Leaders group team” MChJ va Buxoro shahar hokimligi o‘rtasida **mediativ kelishuvga erishilgan** va jamiyatning talablari qanoatlantirilgan.

2. Fuqaro J.K. Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, Do‘stlik MFY hududida “UCELL” aloqa kompaniyasining mobil antenna-machta konstruksiyasi joylashtirilayotganidan norozi bo‘lib, mazkur machtani o‘rnatish manzil-lokatsiyasini o‘zgartirishni so‘rab murojaat yo‘llagan. Fuqaro J.K.ning murojaati “UCELL” aloqa kompaniyasi tomonidan o‘rnatilgan tartibda o‘rganilgan, murojaatda keltirilgan masalalar bo‘yicha javob xati yuborilgan.

3. Vakolatli idora tomonidan vazirlik tizimidagi “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari yuzasidan xat kelib tushgan. Ushbu murojaatga asosan xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, intizomiy jazo choralari ko‘rilgan. O‘rganish natijalari yuzasidan vakolatli idoraga javob xati yuborilgan.

4. Vakolatli idoralarning xatiga asosan, vazirlik huzuridagi ayrim tizim tashkilotlari faoliyati bo‘yicha xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan va intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan.

5. “Makhmudov And Law” advokatlik byurosi advokati - Sh.Mning murojaati asosida xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, mas‘ul xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan va javob xati yuborilgan.

6. Vakolatli idoralardan U.S.ning xatti-harakatlari yuzasidan yo‘llagan murojaati bo‘yicha xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, unga nisbatan intizomiy jazo choralari ko‘rilgan. O‘rganish natijalari yuzasidan vakolatli idoraga tegishli tartibda javob xati yuborilgan.